

## **YURTIMIZDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA IJTIMOYIY YORDAMNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI.**

**Nuraliyeva Madina Ergash qizi**

[sayoraabduraxmonova756@gmail.com](mailto:sayoraabduraxmonova756@gmail.com)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi**

**Abdurasulova Sohiba Abdurahmon qizi**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya fakulteti talabasi**

[abdurasulovasohiba021@gmail.com](mailto:abdurasulovasohiba021@gmail.com)

**Abdukarimov Ahmadali Sherali o'g'li**

[aliabdukarimov417@gmail.com](mailto:aliabdukarimov417@gmail.com)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi**

**Egammurodov Otabek Abduhakimovich**

[otabekegammurodov4@gmail.com](mailto:otabekegammurodov4@gmail.com)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi**

**Almardanova Kamola Tulkinovna**

[almardanovakomo@icloud.com](mailto:almardanovakomo@icloud.com)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning dolzarb masalalari, uning rivojlanish istiqbollari va takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar uchun yaratilayotgan sharoitlar, davlat siyosati, huquqiy-me'yoriy asoslar va xalqaro tajribalar o'rganiladi. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, rehabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish, ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish hamda jamiyatning nogiron bolalarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maxsus ta'lim muassasalari, psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturlari, nogiron bolalarni mehnat bozoriga jalb etish mexanizmlari ham yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning samaradorligini oshirish hamda kelgusidagi strategik yo'nalishlar bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy yordam, inklyuziv ta'lim, rehabilitatsiya, maxsus ta'lim muassasalari, jamiyatga integratsiya, davlat dasturlari, huquqiy asoslar, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya, xalqaro tajriba, mehnat bozoriga moslashuv.

### **Kirish**

Jamiyatning har bir a'zosi teng huquqlarga ega bo'lishi kerakligi inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi xalqaro me'yorlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Shu nuqtayi nazardan, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning sifatli ta'lim olishi, sog'lig'ini tiklash va mehnat bozoriga moslashishiga ko'maklashish davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, maxsus ta'lim muassasalari, rehabilitatsiya markazlari va inklyuziv ta'lim tizimi rivojlantirilmoqda. Shuningdek, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamjamiyatning hamkorligida ushbu bolalar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shunga qaramay, imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Jumladan, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatga moslashuv jarayonini yengillashtirish, rehabilitatsiya xizmatlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni mustahkamlash muhim masalalar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga ko'mak berish va bu boradagi ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganishdan iborat.

### **Tadqiqot usullari va materiallari**

Ushbu tadqiqot imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini tahlil qilish va uning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlar va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, xalqaro konvensiyalar va ijtimoiy himoya bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tahliliy yondashuv – imkoniyati cheklangan bolalar uchun yaratilgan sharoitlar, davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati, rehabilitatsiya markazlari hamda inklyuziv ta'lim tizimi tahlil qilindi. Taqqoslash usuli – O'zbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlarning nogiron bolalar uchun ijtimoiy yordam tizimi bilan solishtirilib, samarali model va mexanizmlar aniqlandi. Sotsiologik tadqiqot – imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari, pedagoglar, psixologlar hamda ijtimoiy xodimlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, muammolar va ehtiyojlar tahlil qilindi. Statistik tahlil – rasmiy ma'lumotlar va tadqiqot natijalari asosida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyalashuv darajasi, ta'lim olish

imkoniyatlari va rehabilitatsiya jarayonining samaradorligi baholandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nogiron bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha farmon va qarorlari; “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi BMT konvensiyasi hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari; Ta‘lim, rehabilitatsiya va ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari; Davlat organlari va nohukumat tashkilotlarning hisobotlari va statistik ma‘lumotlari; Sotsiologik so‘rov natijalari va ekspert fikrlari. Tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### **ASOSIY QISM**

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy yordamning huquqiy asoslari. Imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlar bilan mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi BMT konvensiyasiga qo‘shilgan bo‘lib, bu nogiron bolalarning teng huquqlarga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga qo‘shimcha ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha “Nogironlarni rehabilitatsiya qilish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlash” dasturi qabul qilingan. Ushbu dastur doirasida maxsus ta‘lim muassasalari, rehabilitatsiya markazlari tashkil etilgan hamda inklyuziv ta‘lim tizimi joriy qilinmoqda. Biroq, ushbu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va ilg‘or mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘lim va rehabilitatsiya tizimi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda maxsus ta‘lim muassasalari va inklyuziv ta‘lim tizimi rivojlantirilmog‘da. Inklyuziv ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarning umumta‘lim maktablarida ta‘lim olishiga sharoit yaratadi va ularning jamiyatga moslashish jarayonini tezlashtiradi.

Ijtimoiy himoya va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimi. Imkoniyati cheklangan bolalar davlat tomonidan turli ijtimoiy yordam va moddiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari bilan ta‘minlanmog‘da. Jumladan: Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan ijtimoiy nafaqalar; Nogiron bolalar uchun bepul tibbiy xizmatlar va rehabilitatsiya kurslari; Maxsus uy-joy dasturlari va imtiyozlar. Biroq, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmog‘da. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, imkoniyati cheklangan bolalar uchun kasbiy ta‘lim va mehnat bozoriga moslashish dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O‘zbekistonda ham nogiron bolalarni kasb-hunarga o‘rgatish, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydigan dasturlarni ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash talab

etiladi. Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish. Imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning to'laqonli a'zolari hisoblanadi. Biroq, ularning ijtimoiy hayotga to'liq integratsiyalashuvi uchun jamiyatda ularni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur. Hozirda nogiron bolalar huquqlari va ularning jamiyatdagi o'rni to'g'risida targ'ibot ishlari olib borilmoqda, ammo bu boradagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish lozim.

Jamoatchilikning nogiron bolalarga nisbatan tushunchasini o'zgartirish va inklyuziv jamiyatni shakllantirish uchun: OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali maxsus dasturlarni ommalashtirish; Nogiron bolalar ishtirokida madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish; Ularning huquq va imkoniyatlari haqida aholining xabardorligini oshirish. Bu kabi chora-tadbirlar imkoniyati cheklangan bolalar uchun yanada qulay va ochiq jamiyat yaratishda muhim rol o'ynaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam tizimi yildan yilga rivojlanib bormoqda, biroq hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud. Ta'lim, rehabilitatsiya, ijtimoiy himoya va jamiyatda ularning maqomini oshirish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

### **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlanayotganligi aniqlandi: Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi – Nogiron bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilingan. Biroq, ularning ijrosi va amaliy tatbiq etilishi bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud. Ta'lim va rehabilitatsiya tizimining takomillashuvi – O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari va inklyuziv ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. Tadqiqot davomida maxsus pedagoglar va rehabilitatsiya mutaxassislariga bo'lgan talab yuqori ekanligi aniqlangan. Ijtimoiy himoya va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi – Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalari uchun davlat tomonidan turli nafaqalar va imtiyozlar ajratilmoqda. Biroq, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va mehnat bozoriga moslashish uchun qo'shimcha kasbiy o'qitish dasturlarini rivojlantirish zarur.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida quyidagi asosiy jihatlar tahlil qilindi: Huquqiy va tashkiliy muammolar. Huquqiy asoslarning mavjudligi imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayotgan yordam samaradorligini oshirish uchun muhim omil bo'lsa-da, ayrim amaliy muammolar mavjud. Jumladan, qabul qilingan qonunlarning to'liq amalga oshirilishi va monitoring tizimining samaradorligi bo'yicha muammolar aniqlangan. Shu bois, ushbu hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Ta'lim va rehabilitatsiya tizimidagi

kamchiliklar. Maxsus ta'lim muassasalari va inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanayotgan bo'lsa-da, bu sohada hali ham dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, maxsus pedagoglar va defektologlarning yetishmovchiligi, zamonaviy reabilitatsiya usullarining yetarlicha qo'llanilmayotgani hamda infratuzilmaning takomillashtirilishi zarurligi aniqlangan. Bu borada xalqaro tajribadan foydalangan holda, maxsus ta'lim va reabilitatsiya markazlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va mutaxassislar tayyorlash tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va bandlik muammolari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalari uchun davlat tomonidan ajratilayotgan ijtimoiy yordamlar yetarli darajada bo'lsa-da, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yetarlicha emas. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, nogiron bolalar uchun kasbiy o'qitish markazlarini kengaytirish va ularni ishga joylashtirish dasturlarini amalga oshirish muhim hisoblanadi.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy yordamni takomillashtirish jarayonida huquqiy, iqtisodiy, ta'lim va jamiyatga moslashish kabi muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Davlat tomonidan qator ijobiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Xususan, ta'lim tizimida maxsus metodikalarni kengaytirish, reabilitatsiya markazlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Qonuni. – 2021-yil 15-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. – 2022-yil 10-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar” dasturi. – 2022-yil.